

NAMANGAN SHAHRINING SHAKLLANISH TARIXI

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi

Ilmiy xodimi: **Rahimova Munira**

Soʻnggi yillarda qurilish kommunikasiya maqsadlaridagi yer ishlarini olib borish jarayonida shaharning yoshiga aniqlik kirituvchi bir qancha sopol topilmalar qoʻlga kiritildi. Ana shu topilmalar X asrga oid ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari shaharni Sardoba dahasida koʻp qavatli uzun qazilgan katta chuqurdan madaniy qatlam va topilgan buyumlarning IX-XI asrlarga tegishli ekanligi hamda Qoraxoniylar davriga oid mis chaqalar topildi. Topilgan sopollarda shu idishdan ovqat yeganlarga baraka, moʻl-koʻlchilik tilangan arabcha koʻfiy yozuv bor.

Hozirgi kundagi asosiy topilmalar IX-XI asrlarga, ya'ni Somoniylar va Qoraxoniylar davriga mansub buyumlar qoldiqlaridan iboratdir. Bu topilmalar ichida Buyuk ipak yoʻli oʻtganligini tasdiqlovchi Vizantiyaning rangli shisha buyumlar siniqlari harakterlidir.

Demak, Buyuk Ipak yoʻlining Buxoro-Samarqand-Panjiston-Oʻratepa-Chust-Axsikent-Oʻzgan-Oʻsh-Xitoy yoʻnalishlarining Axsikent-Namangan-Uchqoʻrgʻon-Jalolobod-Oʻsh-Xitoy yoʻnalishlarida Namangan Sardoba dahasi Karvonsaroyi va bozori oʻziga xos ahamiyat kasb etgan.

Mana shu hamda yuqoridagi arxeologik ashyoviy dalillar Namangan shahri soy sohilida qishloq sifatida X asrda ham mavjud boʻlgan, deyish uchun asos boʻla oladi. Keyingi yillarda Namangan tarixi boʻyicha olib borilgan izlanishlar natijasida juda qimmatli ma'lumotlar topildi. Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar xazinasida 6924 raqam ostida bir noyob qoʻlyozma saqlanadi. Mazkur qoʻlyozma X asrda yashab oʻtgan iste'dodli tazkiranavis olim va mutassavvuf Ahmad bin Sa'duddin al-Oʻzganiy an-Namongoniyning "Tazkirayi Bugʻroxoniy" nomli asridir.

Mazkur asarda "Jome'i Ahmad bin Sa'duddin al-Oʻzganiy an-Namongoniy (ya'ni avval Oʻzganlik, soʻngra Namongonlik Sa'duddin oʻgʻli Ahmadning toʻplami) degan

soʻzlar bitilgan. Bundan ma'lum boʻladiki, Sa'duddin bin Ahmad avval Oʻzganda yashab, soʻngra Namangan kelib yashagan. Bu yerda yashab turgan davrda “Tazkirayi Bugʻroxoniy” asarini yozgan. Demak, Namangan nomi X asr yozma manbaasida zikr etilgan ekan.

“Boburnoma”da yozilishicha, Bobur Kosonsoydan kelayotib, Namanganga tushganligi haqida toʻxtalib, “Arxiyon Qurgʻonini (arxiyon qoʻrgʻoni hozirgi Toʻraqoʻrgʻon tumanidagi Madaniyat saroyi oʻrnida boʻlib, Argʻin-sayram qishloq fuqarolar yigʻiniga qarashli) yozuq qatalamoqni salohin topmay, bir sheʼrisida Gʻaznai Namangonga tushuldi. Boburning “Gʻaznai Namongon” deb atashi nimani bildiradi va u nimaga ishora qilmoqchi? Bizningcha, u Namanganning goʻzal tabiati, yerining serunumligi, aholisining mehnatsevarligi va toʻqligini nazarda tutgan boʻlsa ajab emas. V. Nalivkinning “Qoʻqon xonligining qisqacha tarixi”, “Ipak yoʻli afsonalari” kitoblarida qayd etilganidek, Namangan shahri paydo boʻlmasdan avval uning oʻrnida uchta jar boʻlgan ekan. Ana shu jarlarning ichida oʻn qalandar yashagan ekan. Ularning eng kattasi Xasti Langar, undan keyingisi Xasti Hizir ekan. Shu atrofdagi aholi suv tanqisligidan qiynalib kelar ekan. Shunda Xasti Langarboboning maslahati bilan Xasti Hizir qoʻlidagi xassani mingan xolda Navkent tarafiga ketib qolgan ekan. Xudoni amri bilan Xasti Hizirning xassasi chizgan chiziq oʻrnida ariq paydo boʻlib, odamlar suvdan bahramand boʻlganlar. Namangansoy ana shunday paydo boʻlgan ekan.

Buxoro hukmdorlaridan biri Namangan atrofidan oʻtayotib, shu yerda toʻxtab dam oladi. Bu ajoyib, soʻlim maskan unga juda yoqib qoladi va oʻz yaqinlaridan biriga shu yerda shahar barpo qilish vazifasini yuklaydi. Berilgan yorliqda Namanganning toʻrt fazilatga ega boʻlishi, yaʼni goʻzal, soʻlim, obod va gullar shahriga aylanishi alohida taʼkidlab oʻtilgan. Rivoyatning qay darajada asosli ekani bizga qorongʻu. Rivoyatga koʻra, Buxoro xonligining asoschisi Abdulloxon II 1582 yilda Eron bilan boʻlgan urushda gʻolib chiqib, koʻplab asirlarni qoʻlga tushuradi. U ana shu asirlarni bir qismini Fargʻonaga yuborgan emish. Xonning buyrugʻi bilan Qashqarlarning Ogʻa urugʻidan sotib olingan qizlarni ham shu asirlarga majburan xotin qilib berishgan. Shundan soʻng asirlar vodiyniing turli tumanlariga muqim yashash uchun tarqatilgan. Chunonchi, hozir Namangan yerlariga

100 ta oila yuborilib, joylashtirilgan. Ana shu yerda Namangon-Namangan nomi bilan atalgan qishloq tashkil topgan emish. Kim bilsin deysiz rivoyatlar haqiqat bulog'idan suv ichgan deyiladi. A.Z. Validovning yozishicha, rasmiy hujjatlarda Namangan 1758-1759 yillarda Andijon, Qo'qon va Marg'ilondan so'ng to'rtinchi beklik deb ko'rsatilgan.

Qo'qon xonligi tarixini yozgan V.P. Nalivkin ham "Qo'qon xonligining qisqacha tarixi" asarida XVI-XIX asr vaqf hujjatlarida tilga olingan Namangon 1643 yillarda qishloq bo'lgan deb ta'kidlab o'tilgan.

Mahmud binni Valining yozishicha ham 1172 hijriy-1756 milodiy yillarga doir hujjatlarda ham Namangon viloyat sifatida tilga olingan. Aytish mumkinki, Axsikent zilzila oqibatida vayron bo'lgach, aholining bir qismi Namangonga ko'chib o'tishi munosabati bilan Shimoliy Farg'onaning siyosiy-iqtisodiy hayotida Namangon shahri asosiy rol o'ynagan.

Xitoy manbalarida ham 1759-1760 yillarda Namangan (Xitoycha Namugan) alohida beklik sifatida tilga olingan. Jumladan, "Namangan Qo'qon singari yirik shaharlardan bo'lib, uning aholisi 10000 kishini tashkil etgan, shuningdek, manbada bu davrda Andijon aholisi ming kishi ekanligini hisobga olinsa, o'z davri uchun Namangan yirik shahar bo'lgan. Namangan shahri Qo'qon xonligi davrida siyosiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan yetakchi o'rinlarni birini egallagan va yirik iqtisodiy markazlardan biriga aylangan. Astasekin Namanganning iqtisodiy salohiyati O'rta Osiyoda ham yuksalib borgan. O'rta Osiyoning yirik markazlaridan bo'lgan Toshkent, Buxoro, Qo'qon, Turkiston, Avliyoota, Qashqar va Namangan orasida yil davomida to'g'ridan-to'g'ri savdo karvonlari qatnagan.

Norin daryosidan suv oluvchi 1803 yilda qazilgan Yangi ariq kanali Namangan shahrining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. 1819 yilda Yangi ariqning Qo'qon xoni Umarxon tomonidan kengaytirilishi natijasida quruq yerlar o'zlashtirilib, Namangan shahri yanada kengaygan.

Namangan 19 asr boshlariga kelib xonlikning yirik markazlaridan biriga aylangan va 1842-1845 yillarda atrofi mudofaa devori bilan o'ralgan. Ma'lumotlarga qaraganda, 19 asrning 20 yillarida Namangan shahrida taxminan 5000 uy bo'lgan va ularda 25000 dan ortiq aholi yashagan. 19 asr boshlariga kelganda Farg'ona vodiysidagi eng yirik va

mashhur bozorlardan biri Namanganda bo'lgan. Namangan bozori hunarmandchilik, bog'dorchilik mahsulotlari hamda tog'li qirg'izlar bilan savdoda xonlikda ajralib turgan.

Namangandagi savdo munosabatlari Qo'qon xonlarining ham doimo e'tiborida edi. Xususan, Qo'qon xoni Xudoyorxon Namanganning iqtisodiy salohiyatini hisobga olib, 500 do'kondan iborat yirik bozor qurdirgan. Har bir do'kon yiliga besh tildan 10 tillogacha xon xazinasiga daromad keltirgan. 1875 yil A.L.Kun Qo'qon xonligiga kelgan davrda Namanganda mingdan ortiq savdo do'koni borligini yozib qoldirgan.

Qo'qon xonligining qo'shni mamlakatlarda ip-kalavasi ham mashhur bo'lib, xonlikdagi eng yuqori sifatli kalava Namanganniki hisoblangan. Namangan turli xildagi o'simliklardan turli rangdagi sifatli bo'yoq tayyorlash va ip gazlama, ipak ip hamda ipak matolarni bo'yash kasbi bilan ham taniqli edi.

Namangan Qo'qon kabi xonlikning muqovalash hunari rivojlangan shaharlaridan bo'lib, bu yerda charm va qog'ozdan yaratilgan muqovalar O'rta Osiyoning yirik markazlari-Samarqanda va Xivada tayyorlangan muqovalardan qolishmas edi.